JAMOATCHILIK FIKRINI SHAKLLANTIRISHDA PARLAMENT SHARHLOVCHILARINING ROLI

Muxiddinova Aziza Fazliyevna
SamDChTI Sharq tillar fakulteti "Xalqaro jurnalistika" yo'nalishi
3-bosqich 2408-guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada parlament sharhlovchilarining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o'rni kommunikatsiya nazariyalari asosida tahlil qilinib, unda kun tartibini belgilash, freyming, ikki bosqichli kommunikatsiya, sukut spirali va jamoat maydoni nazariyalari parlament sharhlovchiligi faoliyatiga tatbiq etilgan. Natijada sharhlovchining oltita asosiy roli aniqlanib, tushuntiruvchi, kun tartibini belgilovchi, talqin qiluvchi, fikr yetakchisi, nazoratchi va muloqot maydonini yaratuvchi sifatida har bir rolning foydasi bilan birga xavfi ham ko'rsatildi. Maqola oxirida sharhlovchining jamoatchilik ishonchini saqlashga yordam beradigan kasbiy tamoyillar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: jamoatchilik fikri, parlament sharhlovchisi, kun tartibini belgilash, freyming, fikr yetakchisi, jamoat maydoni, jurnalistik axloq.

Abstract. The article analyzes the role of parliamentary commentators in shaping public opinion on the basis of communication theories. Agenda setting, framing, the two step flow of communication, the spiral of silence and the public sphere were applied to the activity of parliamentary commentary. Six main roles of a commentator were identified: explainer, agenda setter, interpreter, opinion leader, watchdog and creator of a space for dialogue. For each role, the benefits and the typical risks are described. The article concludes with professional principles that help a commentator preserve public trust.

Keywords: public opinion, parliamentary commentator, agenda setting, framing, opinion leader, public sphere, journalistic ethics.

Demokratik tuzumda jamoatchilik fikri qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatining ijtimoiy tayanchidir. Deputatlar qabul qilgan qarorlar oxir oqibat fuqarolar qo'llab quvvatlasa kuch oladi, qarshilik bilan uchrashsa sinovdan o'tadi. Fuqaro esa parlamentda nima bo'layotganini ko'pincha o'z ko'zi bilan ko'rmaydi, bu haqda ommaviy axborot vositalaridan bilib oladi. Lippmann bu holatni yuz yildan oshiq oldin tushuntirgan edi: odamlar murakkab tashqi dunyoga bevosita munosabat bildirmaydi, ongida hosil bo'lgan, ko'pincha boshqalar yaratib bergan tasavvurlarga munosabat bildiradi[1]. Parlament masalasida bunday tasavvurlarni yaratishda eng faol qatnashadigan shaxslardan biri sharhlovchidir. Parlament sharhlovchisi deganda biz parlament ishi haqida shunchaki xabar berib qo'ymaydigan, uning mazmunini tushuntiradigan, qarorlarning sabab va oqibatlarini tahlil qiladigan va o'z xulosasini auditoriyaga taqdim etadigan jurnalist yoki mutaxassisni tushunamiz. Oddiy muxbir nima bo'lgani, qachon va kim aytganini yetkazadi. Sharhlovchi esa bu voqea nega muhimligini va undan qanday xulosa

[1]Walter Lippmann, Public Opinion, New York: Harcourt, Brace and Company, 1922.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

chiqarish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli sharhlovchining so‘zi jamoatchilik fikriga xabarning o‘zidan ko‘ra chuqurroq ta’sir qilishi mumkin.

Siyosat bilan ommaviy axborot vositalarining o‘zaro bog‘liqligi kuchayishi bu ta’sirni yana oshirmoqda. Strömbäck siyosatning mediallashuvi jarayonini bir necha bosqichga ajratib, siyosiy institutlar va siyosatchilar tobora ko‘proq ommaviy axborot vositalarining mantiqiga moslashayotganini ko‘rsatgan.[2] Demak parlament ishini yoritish uslubi, jumladan sharhlovchi talqinlari, deputatlarning o‘z xulq atvoriga ham ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun sharhlovchining roli axborot tarqatish bilan cheklanib qolmaydi. Kommunikatsiya nazariyalari odatda umumiy siyosiy yoritishni yoki saylov kampaniyalarini o‘rganadi. Parlament sharhlovchisi alohida kasbiy figura sifatida kamroq tadqiq qilingan. O‘zbekiston sharoitida bu masala ayniqsa dolzarb. Mamlakatda parlament faoliyatining ochiqligi oshib, fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayoniga qiziqishi kuchaymoqda, jamoatchilik esa murakkab hujjatlarni tushunishda ishonchli talqinga muhtoj.

Tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad parlament sharhlovchilarining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi rolini nazariy jihatdan asoslash, bu rollarning turlari va xavflarini aniqlash hamda sharhlovchilik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Buning uchun avval jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalarining ta’siri haqidagi asosiy nazariyalar ko‘rib chiqildi, keyin ular sharhlovchilik faoliyatiga moslashtirildi, so‘ng rollar tizimlashtirilib, xavflar baholandi, nihoyat milliy sharoit uchun kasbiy tamoyillar taklif etildi. Tadqiqot sifat yondashuviga asoslangan nazariy tahlil sifatida amalga oshirildi. Darhol aytib o‘tamiz: maqola uchun yangi so‘rov, intervyu yoki kontent tahlili o‘tkazilmadi. Keltirilgan xulosalar mavjud ilmiy manbalarni solishtirish va parlament sharhlovchiligi misolida talqin qilish natijasidir.

Ish uch bosqichda bajarildi. Avval jamoatchilik fikri, kun tartibini belgilash, freyming, ikki bosqichli kommunikatsiya, sukut spirali va jamoat maydoni tushunchalari ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. Keyin har bir nazariya sharhlovchining aniq harakatiga, masalan qonun loyihasini tushuntirishga yoki deputat chiqishini baholashga qanday taalluqli ekani ko‘rib chiqildi. Uchinchi bosqichda ommaviy axborot vositalarining faoliyati va so‘z erkinligiga oid O‘zbekiston qonunchiligi tahlil qilindi[3]. Yakunda topilgan rollar nazariy tayanch, ta’sir mexanizmi va xavf mezonlari bo‘yicha solishtirildi. Tadqiqotning cheklovi shuki, nazariyalarning katta qismi g‘arb mamlakatlari tajribasida ishlab chiqilgan va ularning O‘zbekiston parlament muhitiga mosligini alohida empirik tadqiqot tasdiqlashi kerak. Hallin va Mancinining mulohazasi ham shunga ishora qiladi: ommaviy axborot vositalarining siyosat bilan aloqasi turli mamlakatda turlicha, shuning uchun bir tizimdagi qonuniyatni boshqasiga mexanik ko‘chirib bo‘lmaydi[4].

Birinchi nazariy tayanch jamoat maydoni g‘oyasidir. Habermas jamoat maydonini xususiy shaxslar umumiy ahamiyatli masalalarni ochiq muhokama qiladigan makon deb tavsiflagan va ommaviy axborot vositalari bu makonning shakli hamda sifatini belgilashini ko‘rsatgan[5]. Sharhlovchi uchun bundan

---

[2]Jesper Strömbäck, “Four Phases of Mediatization: An Analysis of the Mediatization of Politics,” International Journal of Press/Politics 13, no. 3, 2008.

[3]O‘zbekiston Respublikasining 2007 yil 15 yanvardagi O‘RQ 78 son «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonuni, yangi tahrir.

[4]Daniel C. Hallin and Paolo Mancini, Comparing Media Systems: Three Models of Media and Politics, Cambridge: Cambridge University Press, 2004.

[5]Jürgen Habermas, The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society, trans. Thomas Burger, Cambridge, MA: MIT Press, 1989.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

shunday xulosa chiqadi: uning maqolasi yoki chiqishi oddiy fikr bayoni bilan cheklanmaydi, u fuqarolar orasidagi muhokama qaysi mavzuda va qaysi tilda borishini ham belgilaydi.

Ikkinchi tayanch kun tartibini belgilash nazariyasi. McCombs va Shaw saylov kampaniyasi davrida ommaviy axborot vositalari qaysi masalaga ko'proq o'rin bergan bo'lsa, saylovchilar ham aynan shu masalani muhimroq deb bilganini aniqlagan.[6] Sharhlovchi parlamentdagi yuzlab masaladan qaysi birini sharhlash uchun tanlasa, jamoatchilik ko'pincha o'sha masalani muhim deb qabul qiladi. U tilga olmagan masala esa fuqaro nazarida mavjud bo'lmay qolishi mumkin.

Uchinchisi freyming nazariyasi. Entman freymingni voqelikning ayrim tomonlarini tanlab, matnda ajratib ko'rsatish orqali muammoni aniqlash, sababini izohlash, axloqiy baho berish va yechim taklif qilish jarayoni deb tushuntirgan[7]. Scheufele va Tewksbury kun tartibi, freyming va priming bir biridan farq qiladigan, biroq o'zaro bog'liq ta'sir modellari ekanini ko'rsatgan: biri mavzuni tanlashga, ikkinchisi uni qanday talqin qilishga qaratilgan[8]. Sharhlovchi amaliyotida bu ikki jarayon birga kechadi, u mavzuni tanlaydi va shu zahoti muayyan nuqtai nazardan talqin qiladi. Iyengarning tadqiqoti masala alohida voqea sifatida berilishi yoki keng ijtimoiy kontekstda ko'rsatilishi odamlar javobgarlikni kimga yuklashiga ta'sir qilishini ochib bergan[9]. Shu bois deputat chiqishini yakka holat deb bayon qilish bilan uni umumiy siyosat doirasida tahlil qilish jamoatchilikda har xil xulosa uyg'otadi.

To'rtinchisi ikki bosqichli kommunikatsiya modeli. Katz va Lazarsfeld ommaviy axborot vositalarining ta'siri ko'pincha bevosita bo'lmasligini, uning atrofdagilarga fikr bildiradigan va ularning qarashiga ta'sir qiladigan fikr yetakchilari orqali amalga oshishini ko'rsatgan[10]. Parlament sharhlovchisi o'z hamkasblari, mutaxassislar va ijtimoiy tarmoqdagi izdoshlari uchun aynan shunday yetakchi vazifasini bajaradi. Uning talqini bir necha bosqichdan o'tib, ommaviy fikr tarkibiga singib ketadi.

Beshinchisi sukut spirali. Noelle Neumann odamlar jamiyatdan ajralib qolishdan qo'rqib, atrofdagi fikr iqlimini kuzatishini va o'zini ozchilikda deb hisoblasa, fikrini ochiq aytmay qo'yishini ta'kidlagan[11]. Sharhlovchi biror qarashni ommabop va ko'pchilik qo'llab quvvatlaydigan qarash sifatida ko'rsatsa, boshqacha o'ylaydigan fuqarolar jim qolishi, natijada haqiqiy fikr xilma xilligi kamayishi mumkin. Bu sharhlovchining mas'uliyatini yanada oshiradi.

Nazariy tayanchlarni sharhlovchi faoliyatiga qo'llab, oltita asosiy rolni ajratdik. Birinchisi tushuntiruvchi roli. Qonun loyihasi yuridik tilda yoziladi va oddiy fuqaro uni mustaqil tushunishga qiynaladi. Sharhlovchi moddalar mazmunini, ular kimga qanday ta'sir qilishini va nima o'zgarishini sodda tilda bayon etadi. Shu yo'l bilan fuqaro axborotli munozarada qatnasha oladi, jamoat maydoni esa sifatliroq bo'ladi. Kovach va Rozenstil jurnalistikaning birinchi sadoqati fuqarolarga ekanini, asosiy

---

[6]Maxwell E. McCombs and Donald L. Shaw, "The Agenda Setting Function of Mass Media," Public Opinion Quarterly 36, no. 2, 1972.

[7]Robert M. Entman, "Framing: Toward Clarification of a Fractured Paradigm," Journal of Communication 43, no. 4, 1993.

[8]Dietram A. Scheufele and David Tewksbury, "Framing, Agenda Setting, and Priming: The Evolution of Three Media Effects Models," Journal of Communication 57, no. 1, 2007.

[9]Shanto Iyengar, Is Anyone Responsible? How Television Frames Political Issues, Chicago: University of Chicago Press, 1991.

[10]Elihu Katz and Paul F. Lazarsfeld, Personal Influence: The Part Played by People in the Flow of Mass Communications, Glencoe, IL: Free Press, 1955.

[11]Elisabeth Noelle-Neumann, "The Spiral of Silence: A Theory of Public Opinion," Journal of Communication 24, no. 2, 1974.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

intizomi esa tekshiruv ekanini ta'kidlagan. Tushuntiruvchi sharhlovchi uchun ham bu asosiy mezon bo'lib qoladi[12].

Ikkinchisi kun tartibini belgilovchi roli. Sharhlovchi parlament majlisi kun tartibidagi masalalardan qaysi birini chuqur tahlil qilishga tanlasa, jamoatchilik o'sha masalaga qaraydi. Bu rol foydali bo'lishi mumkin, sababi jamiyat uchun muhim, ammo yuzaki o'tib ketayotgan masala oldingi planga chiqadi. Lekin tanlov mezoni ochiq bo'lmasa, faqat ommabop yoki bahsli mavzular yoritilib, uzoq muddatli ahamiyatga ega masalalar chetda qoladi.

Uchinchisi talqin qiluvchi roli. Sharhlovchi deputat chiqishini yoki qabul qilingan qonunni muayyan kontekstga joylab, uning sabab va oqibatlari haqida xulosa beradi. Bu bevosita jamoatchilik fikrini shakllantiradi, zero auditoriya ko'pincha voqeaning o'zidan ko'ra uning talqinini eslab qoladi. Shu bois sharhlovchi fakt bilan o'z fikri orasidagi chegarani o'quvchiga aniq ko'rsatishi shart, aks holda baho fakt sifatida qabul qilinib ketadi.

To'rtinchisi fikr yetakchisi roli. Sharhlovchining obro'si qancha baland bo'lsa, fikri hamkasblar, ekspertlar va keng auditoriya orasida shuncha tez tarqaladi. Bu rolning kuchi ishonchda, xavfi esa shu ishonchdan nazoratsiz foydalanishda. Agar sharhlovchi isbotlanmagan xulosani obro'siga tayanib taqdim etsa, auditoriya uni tekshirmay qabul qilishi mumkin.

Beshinchisi nazoratchi roli. Sharhlovchi deputatlarning va'dalarini ularning ovoz berishi va qarorlari bilan solishtirib, saylangan vakillarning jamoatchilik oldida hisob berishiga ko'maklashadi. Demokratiya sog'lom ishlashi uchun bu rol muhim, ammo u ehtiyotkorlikni talab qiladi. Asosli dalilga tayanmagan tanqid shaxsga hujumga aylanib, ishonchni mustahkamlash o'rniga zaiflashtiradi. Cappella va Jamieson siyosatni faqat strategik o'yin sifatida ko'rsatadigan yoritish fuqaroda shubha va befarqlik kayfiyatini kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatgan[13].

Oltinchisi muloqot maydonini yaratuvchi roli. Sharhlovchi turli qarashdagi deputatlarni, mutaxassislarni va oddiy fuqarolarni bitta munozaraga jalb qilsa, jamoat maydonini haqiqatan kengaytiradi. McNair siyosiy kommunikatsiyada jurnalistlar shunchaki kuzatuvchi bo'lib qolmay, siyosiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishini ta'kidlagan[14]. Bu sharhlovchi o'z rolini qanchalik jiddiy qabul qilishi kerakligini yanada ravshan qiladi.

Aniqlangan rollar va ularga xos xavflar 1 jadvalda umumlashtirilgan.

[12]Bill Kovach and Tom Rosenstiel, The Elements of Journalism: What Newspeople Should Know and the Public Should Expect, New York: Crown Publishers, 2001.

[13]Joseph N. Cappella and Kathleen Hall Jamieson, Spiral of Cynicism: The Press and the Public Good, New York: Oxford University Press, 1997.

[14]Brian McNair, An Introduction to Political Communication, 6th ed., London: Routledge, 2017.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1 jadval. Parlament sharhlovchisining jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi asosiy rollari

Rol	Nazariy asos	Jamoatchilik fikriga ta'sir mexanizmi	Asosiy xavf
Tushuntiruvchi	Lippmann va Habermas qarashlari	Murakkab qonunni oddiy tilga o'girib, fuqaroga munozarada qatnashish imkonini beradi	Haddan ortiq soddalashtirish va mazmunni buzish
Kun tartibini belgilovchi	Kun tartibini belgilash nazariyasi	Qaysi parlament masalasi muhimligini tanlab, jamoatchilik e'tiborini yo'naltiradi	Muhim, ammo jozibasiz masalalarning e'tibordan chetda qolishi
Talqin qiluvchi	Freyming nazariyasi	Voqeani muayyan nuqtai nazardan ko'rsatib, sabab va javobgarlik haqidagi tasavvurni shakllantiradi	Bir tomonlama talqin va tarafkashlik
Fikr yetakchisi	Ikki bosqichli kommunikatsiya modeli	O'z izdoshlari va hamkasblari orqali fikrni keng qatlamlarga yetkazadi	Shaxsiy obro'dan nazoratsiz foydalanish
Nazoratchi	Jurnalistikaning hisobdorlik vazifasi	Deputat va qarorlarni jamoatchilik oldida baholashga undaydi	Asossiz ayblov, shaxsga hujumga aylanish
Muloqot maydonini yaratuvchi	Jamoat maydoni g'oyasi	Turli qarashlarni bir joyga keltirib, ochiq bahs muhitini hosil qiladi	Bahsning qutblashuvi, fikr iqlimidagi bosim

Sharhlovchining ta'siri qancha katta bo'lsa, xatosining oqibati ham shuncha og'ir bo'ladi. Eng avval tarafkashlik xavfi bor. Sharhlovchi bir siyosiy kuch yoki guruh manfaatiga yaqin turib, buni oshkor qilmasa, auditoriya uning talqinini mustaqil baho deb o'ylaydi va jamoatchilik fikri sezdirmasdan yo'naltiriladi. Ikkinchi xavf haddan ortiq soddalashtirishdir. Murakkab qonunni tushunarli qilish zarur, lekin soddalashtirish jarayonida muhim istisno, shart va oqibatlar tushib qolsa, fuqaro noto'g'ri tasavvur bilan qoladi. Uchinchi xavf siyosatni faqat kurash va ittifoqlar o'yini sifatida ko'rsatishdir. Bunday yoritish diqqatni qonunlarning mazmunidan shaxslar raqobatiga og'dirib, parlamentga nisbatan umumiy ishonchsizlikni oshiradi. To'rtinchi xavf fikr iqlimiga bosim o'tkazishdir. Sharhlovchi o'z qarashini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yagona to‘g‘ri qarash sifatida ko‘rsatsa, boshqacha o‘ylaydigan fuqarolar jim qolishi mumkin va sukut spirali ishga tushadi. Beshinchi xavf ijtimoiy tarmoqlarga bog‘liq. Sharhlovchining qisqa va hissiyotli bayonoti tez tarqalib, tekshirilmagan talqinni minglab kishiga yetkazishi mumkin, uni keyin tuzatish esa ancha qiyin. O‘zbekiston qonunchiligida ommaviy axborot vositalarining erkinligi va so‘z erkinligi tamoyili mustahkamlangan. Shu bilan birga bu erkinlikdan suiiste'mol qilishga yo‘l qo‘yilmasligi ham belgilab qo‘yilgan[15]. Bu ikki jihat sharhlovchilik uchun muhim: u fikrini erkin bildirishga haqli, ammo bu huquq jamoatchilik oldidagi mas'uliyat bilan uyg‘unlashishi kerak. Qonun umumiy sharoitni yaratadi, sharhning sifati esa asosan kasbiy axloqqa, tahririyat siyosatiga va jurnalistning malakasiga bog‘liq. Shu bois milliy parlament sharhlovchiligini rivojlantirishda qonunchilik bilan birga kasbiy standartlar masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Natijalar parlament sharhlovchisi jamoatchilik fikrini bir vaqtda bir necha yo‘l bilan shakllantirishini ko‘rsatdi: u mavzuni tanlaydi, uni talqin qiladi, obro‘si orqali tarqatadi va munozara muhitini belgilaydi. Bu mexanizmlarning har biri alohida o‘rganilgan, ammo sharhlovchi faoliyatida ular yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Shu bois mas'uliyat ham alohida jihatlarga bo‘linmay, butun faoliyatga yoyilishi kerak.

Shu asosda sharhlovchining jamoatchilik ishonchini saqlashga xizmat qiladigan beshta kasbiy tamoyilni taklif qilamiz. Birinchisi fakt va fikrni aniq ajratish: sharhlovchi qaysi qism tekshirilgan ma'lumot, qaysi qism o‘z bahosi ekanini o‘quvchiga ko‘rsatadi. Ikkinchisi manfaatlar ochiqligi: siyosiy, iqtisodiy yoki shaxsiy bog‘liqligi bo‘lsa, buni auditoriyaga oldindan aytadi. Uchinchisi qarashlar xilma xilligi: bir masala bo‘yicha bir necha nuqtai nazar keltirilib, deputatlarning ham, mutaxassislarning ham, fuqarolarning ham ovozi eshitiladi. To‘rtinchisi tekshiriluvchanlik: sharhdagi har bir muhim da'vo hujjatga, ovoz berish natijasiga yoki rasmiy ma'lumotga tayanadi va o‘quvchi uni mustaqil tekshira oladi. Beshinchisi xatoni ochiq tuzatish: xatoni tan olish ishonchni kamaytirmaydi, aksincha mustahkamlaydi. Bu tamoyillar Kovach va Rozenstil ta'riflagan jurnalistika asoslariga mos tushadi. Ularning talabi ham tekshiruv intizomi, mustaqillik va fuqarolar oldidagi sadoqatga tayanadi. Shu bilan birga Hallin va Mancinining tadqiqotidan kelib chiqib aytish mumkinki, bu tamoyillarning amalda qanday ko‘rinishi mamlakatning ommaviy axborot tizimiga bog‘liq. Shuning uchun ularni milliy sharoitga moslab, tahririyatlar va jurnalistlar jamoasi bilan birga muhokama qilish zarur[16].

Kelgusi tadqiqotlar uchun bir nechta yo‘nalish ko‘rinadi. Birinchidan, parlament sharhlarining mazmun tahlilini o‘tkazib, ularda qaysi freymlar ko‘proq ishlatilishini aniqlash mumkin. Ikkinchidan, sharhlovchilar bilan chuqur suhbat o‘tkazib, ularning o‘z rolini qanday anglashini o‘rganish foydali bo‘ladi. Uchinchidan, auditoriya so‘rovlari orqali sharhlarning haqiqiy ta'sir darajasini va ularga bo‘lgan ishonchni baholash lozim. Tadqiqot parlament sharhlovchisi jamoatchilik fikrini shakllantirishda oddiy axborot yetkazuvchi bo‘lib qolmay, muhim ijtimoiy ishtirokchi ekanini ko‘rsatdi. Uning faoliyati oltita rolda namoyon bo‘ladi: tushuntiruvchi, kun tartibini belgilovchi, talqin qiluvchi, fikr yetakchisi, nazoratchi va muloqot maydonini yaratuvchi. Har bir rol jamoatchilik fikriga o‘ziga xos yo‘l bilan ta'sir qiladi.

Shu ta'sir tarafkashlik, haddan ortiq soddalashtirish, siyosatga nisbatan shubhani kuchaytirish va fikr iqlimiga bosim o‘tkazish xavflarini ham keltirib chiqaradi. Bu xavflarni kamaytirish uchun fakt bilan fikrni ajratish, manfaatlar ochiqligi, qarashlar xilma xilligi, tekshiriluvchanlik va xatoni tuzatish tamoyillariga amal qilish tavsiya etiladi. O‘zbekiston uchun asosiy amaliy xulosa shuki, parlament sharhlovchiligini rivojlantirishda qonuniy erkinlik bilan bir qatorda kasbiy axloq standartlari,

[15]«Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonun, O‘RQ 78 son.

[16]Kovach and Rosenstiel, Elements of Journalism; Hallin and Mancini, Comparing Media Systems.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

jurnalistlarning tahliliy malakasi va tahririyatlardagi ichki sifat nazorati ham mustahkamlanishi kerak. Shundagina sharhlovchi jamoatchilik fikrini yo'naltiruvchi bo'lib qolmay, uning axborotli va mustaqil shakllanishiga ko'maklashadigan ishonchli ishtirokchiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 15 yanvardagi O'RQ 78 son «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonuni, yangi tahrir.
2. Cappella J. N., Jamieson K. H. Spiral of Cynicism: The Press and the Public Good. New York: Oxford University Press, 1997.
3. Entman R. M. Framing: Toward Clarification of a Fractured Paradigm // Journal of Communication. 1993. Vol. 43, No. 4.
4. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere: An Inquiry into a Category of Bourgeois Society / transl. by T. Burger. Cambridge, MA: MIT Press, 1989.
5. Hallin D. C., Mancini P. Comparing Media Systems: Three Models of Media and Politics. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.
6. Iyengar S. Is Anyone Responsible? How Television Frames Political Issues. Chicago: University of Chicago Press, 1991.
7. Katz E., Lazarsfeld P. F. Personal Influence: The Part Played by People in the Flow of Mass Communications. Glencoe, IL: Free Press, 1955.
8. Kovach B., Rosenstiel T. The Elements of Journalism: What Newspeople Should Know and the Public Should Expect. New York: Crown Publishers, 2001.
9. Lippmann W. Public Opinion. New York: Harcourt, Brace and Company, 1922.
10. McCombs M. E., Shaw D. L. The Agenda Setting Function of Mass Media // Public Opinion Quarterly. 1972. Vol. 36, No. 2.
11. McNair B. An Introduction to Political Communication. 6th ed. London: Routledge, 2017.
12. Noelle-Neumann E. The Spiral of Silence: A Theory of Public Opinion // Journal of Communication. 1974. Vol. 24, No. 2.
13. Scheufele D. A., Tewksbury D. Framing, Agenda Setting, and Priming: The Evolution of Three Media Effects Models // Journal of Communication. 2007. Vol. 57, No. 1.
14. Strömbäck J. Four Phases of Mediatization: An Analysis of the Mediatization of Politics // International Journal of Press/Politics. 2008. Vol. 13, No. 3.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.